

IQTISODIY ISLOHATLAR SHAROITIDA MALAKALI KADRLAR TAYYORLASH MASALASI

Saydaliyeva Kumushoy Zafarjon qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

“Menejment” fakultetining “Biznessni boshqarish” yo‘nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18935307>

Annotatsiya: Mazkur maqola hozirgi iqtisodiy globallashtirish davrida zamonaviy malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash va ularni mehnat bozorida munosib urnini topish masalalari yoritilgan.

Tayanch so‘z va iboralar. Bozor, iqtisodiyot, mehnat bozori, kadrlar, texnologiyalar, bilimlar.

Hozirgi kunda zamonaviy bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida har qanday davlatning eng asosiy boyligi uning tabiiy resurslari bilan birga, intellektual salohiyati va malakali kadrlari hisoblanadi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlar sharoitida ushbu masala nafaqat ijtimoiy, balki strategik xavfsizlik va iqtisodiy barqarorlik darajasiga ko‘tarilmoqda. Iqtisodiyotning modernizatsiya qilinishi, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi va ishlab chiqarishning avtomatlashuvi mehnat bozoriga butunlay yangi talablarni qo‘ymoqda. Endilikda shunchaki diplomga ega bo‘lish kifoya emas balki, zamonaviy mutaxassis sifatida kreativ fikrlash, moslashuvchanlik va yuqori texnologik ko‘nikmalarni o‘rganish va shaxsiy kompetensiyasini rivojlantirish talab etmoqda.

Shu bois, salohiyatli, malakali kadrlar tayyorlash va ularning sifati masalasi har qanday davlatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz oliy ta‘lim tizimida olib borilayotgan tub islohotlar ham, ya‘ni Yangi O‘zbekiston innovatsion iqtisodiyoti talabiga javob beradigan, ehtiyojlarini qondiradigan, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo‘shadigan salohiyatli kadrlar tayyorlash jarayoni sifatini oshirish masalasi yuqoridagi fikrimizni isbotidir.

Bu borada, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 – 2026-yillarga Mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son1 Farmonida 2022-yilda yoshlarni oliy ta‘lim bilan qamrov darajasini 38 foizga, 2026-yilda ushbu ko‘rsatkichni 50 foizga olib chiqish, hamda ta‘lim sifatini oshirish, shuningdek, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmonining 1-ilovasida mamlakatni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, yuqori malakali professor-o‘qituvchilar, olimlarni ta‘lim jarayoniga jalb qilishning samarali mexanizmlarini yaratish, muayyan ko‘rsatkichlar asosida ularning faoliyatini baholash tizimini rivojlantirish, oliy Ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirishda ichki nazorat va hisobdorlik mexanizmlarini takomillashtirish kabi ustuvor strategik maqsad va vazifalar belgilab berilgan.

Darhaqiqat, malakali kadrlar hozirgi zamon talablari asosida o‘z kasbiy kompetentligi, nodatiy vaziyat va muammolarga echim bera oladigan, kreativ fikrlash bilan birga ma‘naviy-milliy tamoyillarga mos kadr bo‘lishi lozim. Malakali kadrlar salohiyatini baholash bir qator mezonlarga asoslanadi. Jumladan;

- kasbiy ko‘nikma va bilim;
- ta‘lim,
- shaxsiy ish tajribasi,

- muloqot qobiliyati,
- erishgan yutuqlari,
- til va zamonaviy texnologiyalarni bilish darajasi,
- xorijda ta'lim olganligi,
- xalqaro sertifikatlarga egaligi,
- ilmiy unvon va darajasi,

Shuningdek, mehnat faoliyatida erishilgan yutuqlari ham bunga asos bo'la oladi. Bundan tashqari, hozir ko'pgina vazirlik va idoralarda, hatto aksiyadorlik jamiyatlarida, qo'shma korxonalarda ham kadrlarni faoliyat samaradorligini baholashda KPI (Key Performance Indicators) eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari tizimi yo'lga qo'yilmoqda.

Bugungi raqamli transformatsiya sharoitida ta'lim faqat nazariy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki hayotda amaliy qo'llaniladigan malaka va ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan malakalar shakllantirilmoqda. Bizga ma'lumki bilimlar tez eskiradi va bu bilimlarni kasblar mazmuni bilan uyg'unlashtirib doimiy ravishda yangilab borish davr talabidir. Shu bois inson butun hayoti davomida yangi kompetensiyalarni, ayniqsa muloqot, jamoada ishlash, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish kabi mobil ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim. Mazkur jarayonni samarali tashkil etish ta'lim tizimini mehnat bozori bilan uzviy bog'laydigan raqamli mexanizmlarni joriy etishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, Lifelong Learning – hayot davomida ta'lim olish modeli zamonaviy mehnat bozori talablariga mos, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda strategik ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv inson kapitali rivojini uzluksiz jarayon sifatida qarab, bilim va kompetensiyalarni doimiy yangilashni nazarda tutadi. Misol uchun talaba universitetda o'qishi davomida dasturlash yoki yangi xorijiy til o'rganishi mumkin. Bunda talaba faqatgina o'z yo'nalishi bilan cheklanib qolmay, balki o'zining shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan har payshanba kuni “Yoshlar kuni” etib e'lon qilinishi ham bu yo'nalishdagi amaliy qadamlardan biridir. Bu tashabbus yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ularning muammolarini o'rganish va salohiyatini ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Takidlanishicha, shu kuni sohaga mas'ul rahbarlar mahalla, maktab va texnikumlarga borib, yoshlarni eshitadi va muammolarini hal qilishda ko'maklashadi. Hokimlar yoshlarbop savdo-servis loyihalarini amalga oshirib, yoshlarbi ta'lim olishi, sport bilan shug'ullanishi, kasb va til o'rganib, ishga kirishi yoki tadbirkorlik bilan shug'ullanishiga ko'maklashadi. Bu islohatlarning barchasi shiddat bilan o'sib, rivojlanib borayotgan yurtimiz ravnaqi uchun, unga malakali kadrlarni yetkazib berishga xizmat qiladi.

Shu jihatdan, malakali kadrlar tayyorlash masalasida “dual ta'lim” tizimini joriy etish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bu tizim talabaning nazariy bilimni oliy ta'lim muassasasida olishi, amaliy ko'nikmalarni esa bevosita korxona, ish jarayonlarida shakllantirishini ko'zda tutadi. Bu orqali bitiruvchi ishga joylashgan kuniyoq jarayonga moslashib ketishi mumkin bo'ladi. Iqtisodiyotning raqamlashishi esa kadrlar oldiga yangi — raqamli savodxonlik va kreativ fikrlash talabini qo'yimoqda. Bugun muhandis ham, iqtisodchi ham, hattoki qishloq xo'jaligi xodimi ham axborot texnologiyalaridan erkin foydalana olishi muhim va shartdir.

Bugungi zamonaviy duunyoda texnik bilim ya'ni (Hard skills) tez eskiradi, ammo “Soft skills” kadrlarning har qanday vaziyatda samarali ishlashini ta'minlaydi. Iqtisodiyot raqamlashib borgani sayin, insoniy muloqot va ijodkorlikning qiymati oshib bormoqda. Shu sababdan, Iqtisodiy islohotlar sharoitida mutaxassisdan quyidagilar talab etiladi:

1. Kritik fikrlash va muammolarni kreativ hal qilish.
2. Jamoada ishlash va emotsional intellekt.
3. Moslashuvchanlik (Agility) – o'zgaruvchan bozor sharoitiga tez ko'nikish.

Buning uchun iqtisodiy islohotlar nafaqat raqamlar yoki qonunlar o'zgarishi, balki inson kapitalining sifat o'zgarishini ta'minlaydi. Kadrlar tayyorlash tizimi bozor ortidan quvuvchi emas, balki bozorni shakllantiruvchi (proaktiv) xarakterga ega bo'lishi lozim. Iqtisodiyotda kadrlar tayyorlash “Bozor talabidan bir qadam oldinda” bo'lishi kerak. Bugun 1-kursga kirgan talaba 4 yildan keyin qaysi texnologiya dolzarb, iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari yetakchi bo'lishini bilishi, ular haqida kerakli kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Taklif o'rnida shuni aytib o'tish joyizki, Oliy ta'lim o'quv dasturlariga nafaqat mutaxassislik fanlarini, balki “Negotiation” (Muzokara olib borish) va “Leadership” (Yetakchilik) kurslarini ham integratsiya qilish foydali bo'ladi. Bu orqali talabalarni muloqot qilish, omma oldida o'z-o'zini boshqarish, shaxsiy kopetensiyasini oshirishda qo'l keladi.

Bugungi sharoitda xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlar mehnat bozori talablariga mos va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda yuqori natijalarga erishmoqda. Hech kimga sir emaski, bu borada o'zimzda ham keng ko'lamli islohatlar olib borilmoqda. Jumladan, “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish barobarida, ta'lim sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish ustuvor vazifa etib belgilandi. Bu jarayonda nafaqat nazariy bilim berish, balki talabalarda mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini keng shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Shuningdek, yetuk kadrlar tayyorlashda nafaqat davlat, balki xususiy sektorlarning ham ishtiroki muhim ahamiyat kasb etadi. Tadbirkorlar va yirik kompaniyalar o'zlari uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni tayyorlashga sarmoya kiritishi, ularning malakasini oshirish uchun o'quv markazlari tashkil etishi lozim. Bu jarayonda kadrlar oqimining (“brain drain”) oldini olish, ya'ni bilimli yoshlarni mamlakat ichida munosib ish o'rni va ish haqi bilan ta'minlash iqtisodiy barqarorlikning kafolati hisoblanadi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy islohotlar sharoitida malakali kadrlar tayyorlash masalasi shunchaki ta'lim sohasidagi vazifa emas, balki davlatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini belgilovchi eng muhim strategik omildir. Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti “bilimlar iqtisodiyoti” bosqichiga o'tgan bir paytda, har qanday moddiy resurs o'z qiymatini yo'qotishi mumkin, biroq inson kapitali va uning intellektual salohiyati yildan-yilga qimmatlashib boraveradi. Amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati bevosita ta'lim tizimi, ilm-fan va ishlab chiqarishning o'zaro uyg'unligiga (klaster tizimiga) bog'liq. Faqatgina zamonaviy texnologiyalarni boshqara oladigan, nostandart vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan va doimiy ravishda o'z ustida ishlaydigan mutaxassisgina iqtisodiy o'sishning lokomotivi bo'la oladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Mirziyoyev Sh.M. Oliy Majlisga Murojaatnoma. – Toshkent, 2025–2026. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. Ta'lim tizimini takomillashtirishga oid farmon va qarorlar. – Toshkent, 2024–2026.
2. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. Rasmiy ma'lumotlar // www.edu.uz O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Rasmiy statistik ma'lumotlar // www.mineconomy.uz

3. Narzullaev Sh.E. O'zbekistonda biznes inkubatorlar faoliyatini rivojlantirishda talaba yoshlarning o'rni // Global va milliy iqtisodiyotning asosiy muammolari... to'plami, 2024.
4. Abdurahmonov Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: Nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Adolat”, 2019. (Kadrlar salohiyati va mehnat bozori tahlili uchun).
5. Vahabov A.V. va boshqalar. Inson kapitali: shakllanishi va rivojlanishi. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2015. (Inson kapitali va intellektual salohiyat masalalari uchun).